



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA YANGICHA YONDASHUVDA JAHONNING ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yusufjonova Inoyatbibi Shuhratjon qizi

FarDU, magistrant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10473068>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-January 2024 yil

Ma'qullandi: 05-January 2024 yil

Nashr qilindi: 09-January 2024 yil

KEY WORDS

xorijiy tajriba, maktabgacha ta'lim, pedagog, Yaponiya, Elementar ta'lim, musiqa, amaliyot.

ABSTRACT

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik va psixologik tomondan har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayon murakkab mexanizimdir. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi yangi yondashuvlar haqida so'z boradi.

Hozirgi zamonaviylashgan sharoitda rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lim tizimidan foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini olib borgan holda ijobiy yondashgan asoslangan holda amaliyotda joriy etish, bugunki kun talabiga asoslangan me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar, o'quv uslubiy majmualarni joriy etish, ilg'or xorijiy tajriba yuzasidan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining direktor hamda mutaxassis pedagog xodimlarining zamonaviy menejment va pedagogik texnologiyalar bo'yicha ta'limga oid ma'lumotlar hamda ko'nikmalarni rivojlantirish asoslari muhim masalalar sirasiga aylanmoqda. Shu munisabat bilan Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan bir qator farmoyishlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli, «Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 9 sentabrda PQ-3261-son [qarorlari](#), «Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2017 yil 30 sentyabrda PF-5198-sonli Farmoyishlarini ko'rsatish mumkin.

Xorijiy davlatlardagi maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini bir qator mamlakatlar misolida ko'rib chiqamiz.

Yaponiya ta'lim tizimi

Yaponiya - juda tez rivojlanayotgan mehnatkash insonlar yashaydigan va ishbilarmonligi bilan ajralib turadigan mamlakat hisoblanadi.. Dunyodagi barcha innovatsiyalar va yuksalishlar tomon intilish, eng oxirgi yutuqlardan foydalanish hamda ularni yanada takomillashtirish - bu yapon millatining azaliy hamda amaliy, milliy va an'anaviy odatlariga

aylangan. Yaponiyada avvalhi davrlardan beri xalqning intellektual imkoniyatlaridan foydalangan holda fan va texnikani qo'llash siyosati eng dolzarb o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim Yaponiyada katta ahamiyat kasb etadi, negaki psixologlarning aytishlaricha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70% ni, qolgan 30% ni esa butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha talim asosan oiladan shakllanadi. Yapon ayollari uchun onalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina yapon ayollarining aytishlaricha, bola tarbiyasi - ularning xayotlarining maqsadlaridir.

Yaponlar bolaning erta voyaga yetishi tarafdoridirlar. Turli yoshlarda tarbiyaning turli muammolariga urg'u beradi. Masalan, 1 yoshda - o'ziga ishonch xissini uyg'otish, 2 yoshda - amaliy san'at qo'l mexnatini ko'rsatish, 3 yoshda - burch xissini tarbiyalash, 4 yoshda - yaxshilik va yovuzlikni farqlashga o'rgatish, 5 yoshda - liderlik xislatlarini tarbiyalash, mustaqillikka, reja tuzish va ularni bajarishga o'rgatish. Bolalar va qizlar turlicha tarbiyalanadilar. Oilaning bo'lajak tayanchi sifatida qaraydilar va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadilar. Qizlarni esa uy ishlariga tayyorlaydilar. Yaponiya bog'chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruxlar - "xan"largabo'linadi. Bu bolalarga bog'chada "o'z ish o'rni" ajratiladi, ular o'z xanlariga nom tanlaydilar. SHu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o'rgatadilar. Bu guruxdagi xar bir bola guruxda o'z o'rniga ega bo'lishi lozim. Bunday xanlarkeyingi ta'lim bosqichda xam qo'llaniladi. O'rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko'nikish uchun xar 5 oyda o'zgartirib turiladi. Yaponiya bog'chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog'chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko'nikmalarini tarbiyalash, jamiyat xodisalariga to'g'ri munosabatda bo'la olishni o'rgatishdan iborat.

Shuningdek, og'zaki nutq, so'zlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga xam katta e'tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o'yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg'otiladi. Xozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang'ich ta'limga erta qabul qilishga o'tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog'chasiga jalb qilish ko'zda tutilmoqda.

Bolalar bog'chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining birinchi bosqich xisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishga aloxida e'tibor qaratiladi.

Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu yerda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar o'tiladi. Individuallik, u qanchalik yaxshi bo'lmasin, bolalarni o'ziga jalb qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Boshlang'ich ta'lim "syogakko" deb nomlanadi. Uzluksiz ta'lim tizimi, maktablar quyidagicha bo'lingan:

1. Boshlang'ich maktab - 6 yil.
2. O'rta maktab - 3 yil.
3. Yukori maktab - 3 yil.

Germaniya davlati ta'lim tizimi

Germaniyan Federativ Respublikasi 16 ta mustaqil Federativyerlardan (viloyatlar) iborat bo'lib, xar biri shakliga ko'ra turlicha bo'lgan ta'lim tizimiga ega. Bolalar bog'chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga yetmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi

bolalar bog'chasida (nem. Schulkindergarten) taxsil oladilar. Bu bog'chalar aloxida FE qoidasiga ko'ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang'ich ta'lim sektoriga bo'ysinadi.

Maktabgacha ta'lim majburiy emas, lekin ko'pgina FEda rivojlanishda orqada qolgan bolalar uchun majburiy xisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqich xisoblansada, lekin u davlat tizimi tarkibiga kirmaydi. Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, xayriya birlashmalari, korxonalari, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasida. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydilar.

Bolalar bog'chasi olmonlar boshlab bergan va ko'pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o'rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta'kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo'llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog'chasiga qatnash uchun xuquqiy me'yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog'chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog'chasiga qatnash uchun ota-onalardan ularning daromadiga qarab ma'lum miqdorda to'lov olinadi.

Maktabgacha bolalar bog'chasi tayyorlov sinflari va kirish guruxlari maktab ta'limining birinchi bosqichga kiradi. Sekin asta differentsiallashtirilgan ta'lim tizimi, ya'ni har bir o'quvchiga uning qobiliyati va o'qishidagi turlicha yo'nalishiga ko'ra moslashuvchan yondashuv kiritilmoqda.

Umuman olganda Germaniya ta'lim tizimi bir necha bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Elementar ta'lim: maktab ta'limining 1-bosqichga tegishli bo'lib, maktabgacha muassasalar kiradi. Asosan bular bolalar bog'chalari, tayyorlov sinflari va kirish guruxlari bo'lib, bu yerlarga bolalarning qatnashishi 3 yil davomida ota-onalar xoxishiga ko'ra ixtiyoriydir.
2. Ta'limning birinchi bosqich. (Primastufe) boshlang'ich maktab, unga 6 yoshdan qatnay boshlaydi. O'qish muddati 4 yil, Berlin va Brandenburgda 6 yil. Bu bosqichdagi ta'limning maqsadi - bolalarga ta'limning ikkinchi bosqichdagi u yoki bu maktabda ta'limni davom ettirishga imkon beruvchi asosiy bilimlarni berishdan iborat.

Janubiy Koreya ta'lim tizimi

Janubiy Koreya Respublikasi ko'plab tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortadi, sababi bu davlat industrial sivilizatsiya yutuqlarini egallagan Osiyo - Tinch okeani regionining noyob davlatlaridan biridir. Koreyaliklar bajarilishi shart bo'lgan asosiy vazifa - o'z an'anaviy madaniyatini saqlash, siyosiy va ijtimoiy-itisodiy islohotlarni o'z madaniy-siyosiy intensivlik, Sharqning an'anaviy qadriyatlari va orientirlari bilan bog'lashga intilish deb hisoblaydilar. Bu davlatning ta'lim tizimi YuNISEF ekspertlari xulosasiga ko'ra sanoati rivojlangan davlatlar ichida "eng samaralisi" deb tan olingan.¹

Janubiy Koreyada bolalar bog'chasi umumta'lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg'ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba'zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog'chasiga 3 yoshdan 5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog'chasining asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Bog'chalarda asosan musiqa, rasm, xisoblash darslari o'tiladi. Koreys bog'chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga

¹R.Arum, M.Velez.Improving Learning Environments. p. 56.

katta e'tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich ta'lim. Janubiy Koreyada bolalar (6 yoshdan oshgan) 7 yoshdan 13 yoshgacha boshlang'ich maktabga boradilar. O'qish muddati 6 yil, majburiy va bepul.

Kanada ta'lim tizimi. Kanadaliklarning eng muhim yutuqlaridan biri - bu ularning ta'lim tizimidir. Ilg'or universitet va kollejlardagi ta'lim sifati juda yuqori va Kanada diplomlari butun dunyoda tan olinadi. Xalqaro reytingda Kanada ta'limi AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Kanadaning turli provintsiyalari o'quv rejalarida o'ziga xosliklar ko'rinadi. Masalan, Kvebek, Ontario, Manitobda maktabgacha muassasada maktabga tayyorlash 2 yil, 4 yoshdan 6 yoshgacha, Albert va Britan Kolumbiyasida 1 yil. O'quv yili sentabrning birinchi haftasidan boshlanadi va iyunning oxirgi haftasida tugaydi. Kanada maktablarida ta'limning O'rtacha davomiyligi 12 yilni tashkil qiladi.

- 1- 7 yoshdan bolalar boshlang'ich maktabga qatnay boshlaydi va unda 6 yil taxsil olishadi. Manitob va Ontario boshlang'ich maktablarida o'qish boshqa provintsiyalardan ko'ra 2 yil ko'p davom etadi. 12 yoshdan bolalar O'rta maktabga o'tishadi va 16-18 yoshgacha o'qishadi.

Belgiya ta'lim tizimi

Belgiyada maktabgacha ta'lim (MT) 2,5 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi. 2,5 yoshga yetganda bolalarni maktabgacha ta'lim muassasasiga berishadi, shu sababli guruxdagi bolalar soni yil davomida o'zgarib boradi. Maktabgacha ta'lim guruxlarining asosiy maqsadi: bolalarning bilish, bilim orttirish (kognitiv), kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish hisoblanadi. Mashg'ulotlar o'yin shaklida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim majburiy ta'lim dasturiga kiritilmagan bo'lsada, Belgiyada taxminan 90% gacha bo'lgan bolalar unga qatnashadi. Ko'p hollarda maktabgacha ta'lim muassasalari boshlang'ich maktablarga uyg'unlashgan bo'ladi.

Bolalar 6 yoshgayetgandaboshlang'ichmaktabningbirinchisinfigao'qishga kiradi.

Maktab ta'limi davri 2 ta - boshlang'ichvaO'rtamaktabbosqichgabo'linadi. Boshlang'ich maktab, o'z navbatida, 3 ta va 2 ta sinfli bosqichdan iborat. Bu davrda bolalar arifmetika, o'qish, yozish, musiqa, tarix va ba'zi boshqa fanlardan ta'lim olishadi. Darslar 8.30 da boshlanib, 15.30 gacha davom etadi. Soat 12.00 dan 13.00 gacha tushlik uchun tanaffus beriladi. Chorshanba kuni tushlikdan so'ng, shanba va yakshanba kunlari dam olish kunlari hisoblanadi.

Fransiya ta'lim tizimi

Fransiya jaxondagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni xar tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustaqil faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlik va omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iboratdir. Bu yerda davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud. Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor xolda olib kelish g'oyat muxim masala xisoblanadi. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan: kichik gurux (2-4 yosh), o'rta gurux (4-5 yosh), katta gurux (5-6 yosh). Maktabga tayyorlov guruxi (5-6 yosh) bo'lib, ularga Fransiyada 100% shu yoshdagi bolalar qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun aloxida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb

qilinadilar. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish va xisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha xamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin juda arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish 5 yil bo'lib, uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqich;
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi);
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

AQSH ta'lim tizimi

- Amerika Qo'shma shtatlarida ta'lim tizimining tuzilishi quyidagicha: bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha tarbiyalanadigan maktabgacha tarbiya muassasalari; 8 - sinflargacha bo'lgan boshlang'ich maktablar (bunday maktablarda 6 yoshdan 13 yoshgacha o'qiydilar);

- 9 - 12 - sinflardan iborat O'rta maktablar (bu maktablarda 14-17 yoshgacha bo'lgan bolalar ta'lim oladilar). U quyi va yuqori bosqichdan iborat.

Amerika Qo'shma Shtatlarida navbatdagi ta'lim bosqich oliy ta'lim bo'lib, u 2 yoki 4 yil o'qitiladigan kollejlarda xamda dorilfununlardir. AQSH da majburiy ta'lim 16 yoshgacha amal qiladi. Bu mamlakatdagi o'quv yurtlari davlat, jamoa tasarrufida, xususiy va diniy muassasalar ixtiyorida bo'lishi mumkin.

Amerikada 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasi bilan onalar shug'ullanadilar, lekin ularga hech qanday imtiyozlar berilmagan. 5 yoshdan esa

«Kinder garden» deb ataluvchi tayyorlov muassasalarida ta'lim boshlanadi. Boshlang'ich maktab 6 yoshdan to 13- 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Bu boshlang'ich maktablarda umumiy savodxonlik va kasbga yo'naltirish vazifalari xal etiladi. Sinfdan-sinfga ko'chish o'quvchining uzlashtirganlik darajasiga bog'liq. Boshlang'ich ta'lim turli shtatlarda turlicha belgilangan (4, 5, 6, 8 yil)..

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta'minlashda bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim- tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni xar tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2017 y. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 3 oktyabr.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsyepsiyasi to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori.
5. Boymatova A.G., Djumabayeva M.B., Aliyeva K.S. "Maktabgachayoshdagibolalarningpsixologikxususiyatlari" modulibo'yichaO'quv-uslubiy majmua. –T.: TDPU, 2018.
6. Ilhom S., Kizi S. G. N. Early students in mathematics formation of fundamentals of economic knowledge. – 2022.
7. Volkov, B. S. Psixologiya detstva: uchebno-metod. posobie / B. S.Volkov, N. V. Volkova. - M. : APO, 1997. - 152 s.
8. Soliyev I., No'monjonova M. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA NUTQNING TOVUSH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI //Бюллетень педагогов нового Узбекистана. – 2023. – Т. 1. – №. 3. – С. 123-127.
9. Do'stmuhamedova SH.A., Nishonova Z.T. vaboshqalar.YOshdavrlarivapedagogikpsixologiya.- T.:Fanvateknologiyalar, 2013.
10. Sobirjonovich S. I. et al. SOCIAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 92-97.
11. Jo'rayeva B.D. Maktabgacha ta'limni modernizatsiyalash muammolari va rivojlantirish istiqbollari. Xalq ta'limi j., 2008. 5-son. -114-119 b.
12. Sobirjonovich S. I. et al. TARBIYACHILAR KASBIY MAHORAT DARAJASINI OSHIRISH VA UNING TIZIMI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 131-138.
13. Safarali E. D. Integrating Uzbek Folk Tales into the Primary School Curriculum for Patriotism and Friendship Education.
14. Nabievna A. O. Role Play as a Way of Displaying the World in Preschool Age //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2023. – Т. 4. – №. 2. – С. 42-48.